

## **TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

***Dehqonova Sitora***

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu tezis O'zbekiston bank tizimidagi tijorat banklarini soliq tortishning o'ziga xos xususiyatlari va ularni takomillashtirishga bag'ishlangan. Tadqiqot maqsadi soliq majburiyatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish va soliq hisobotlarini tayyorlashda mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** soliq majburiyatlar, foyda va daromad solig'i , buxgalteriya hisobi, soliq hisoboti, tijorat banklari, hisobot turlari ,

### **Kirish**

Bugungi kunda tijorat banklari faoliyatini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar bilan xarakterlanadi: keng ko'lamdagiligi soliq chegirmalaridan keng foydalanish (kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga rezervlar, foyda bazasini ko'rilgan zararlar summasiga kamaytirish va boshqalar), foizli daromad olish bilan bog'liq foizli xarajatlar bo'yicha cheklovsiz chegirmalarni taqdim etilishi, bank faoliyati bilan bog'liq asosiy operatsiyalarni QQS to'lashdan ozod qilinishi. Global moliyaviy inqirozni kelib chiqish sabablari va uning oqibatlarini bartaraf etishda bank sektorini tartibga solish va soliqqa tortish o'rtasidagi mavjud bo'lgan muammolarni ko'rsatib berdi Soliqlar davlat tomonidan jamoat ehtiyojlarini qondirish uchun yuridik va jismoniy shaxslardan yig'iladigan majburiy to'lovlardir. Soliqlar davlat byudjetining asosiy daromad manbai hisoblanadi. Shu bois, soliq majburiyatlarining buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish va soliq hisobotlarini o'z vaqtida tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

### **Mavzuning dolzarbliji**

Tijorat banklari soliq to'lovchilarning yirik guruhi hisoblanadi. Banklarning faoliyati xilma-xil va murakkab bo'lganligi bois, ularda soliq majburiyatlarini buxgalteriya hisobini yuritish va soliq hisobotlarini tayyorlashda qo'shimcha muammolar yuzaga keladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida tijorat banklarida soliq majburiyatlarining buxgalteriya hisobini yuritish va soliq hisobotlarini tayyorlashda bir qator tizimli kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Xususan, ichki tartib-qoidalarning mukammal emasligi, bank xodimlarining soliq masalalari bo'yicha malakasi yetarli emasligi, soliq majburiyatlarini inventarizatsiya qilish va soliq organlari bilan hisob-kitoblarni taqqoslash ishlarining past darajada ekanligi, dasturiy ta'minotni joriy etishning sustligi asosiy muammolar hisoblanadi. Fikrimicha, mazkur muammolarni hal etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:Tijorat banklarining buxgalteriya siyosatini takomillashtirish, soliq majburiyatlarini tan olish, baholash va aks ettirish qoidalarini aniq belgilash lozim. Bank xodimlarining soliq masalalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun ixtisoslashtirilgan treninglar, seminar va o'quv kurslarini tashkil etish kerak. Shuningdek, soliq masalalari bo'yicha konsalting xizmatlaridan foydalanish

maqsadga muvofiq. Soliq majburiyatlarini inventarizatsiya qilish va soliq organlari bilan soliq majburiatlari bo'yicha hisob-kitoblarni taqposlash ishlarini muntazam ravishda amalga oshirish zarur. Bu soliq majburiyatlarini buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishini ta'minlaydi. O'zbekiston soliq ma'muriyati qog'ozga asoslangan hujjatlar bilan tavsiflanadi, bu esa soliqlarni undirishda samarasizlik va kechikishlarga olib keladi. Soliq yig'ish jarayonlarida raqamlashtirishning yo'qligi soliq to'lashdan bo'yin tov lashni kuzatishni qiyinlashtiradi va soliq hisob-kitoblarida noaniqliklarga olib kelishi mumkin. O'zbekiston soliq yig'ish tizimi hozirda bir qancha muammolarga duch kelmoqda. Asosiy masalalardan biri soliq qoidalarida aniqlik yo'qligi bo'lib, bu ko'pincha tijorat banklari uchun noaniqlik va chalkashliklarga olib keladi. Bu aniqlik yo'qligi soliq to'lashdan bo'yin tov lash va oldini olish amaliyotlari uchun ham eshikni ochishi mumkin. Tijorat banklari tomonidan foyda solig'i, mol-mulk va yer solig'I bo'yicha SOLIQ-HAMKOR dasturi banklar tomonidan qo'llanilishi lozim. Unda xarajatlar va daromadlar yuzasidan ichki dastur qabul qilinadi. Qabul qilingan dastur asosida soliq bo'yicha barcha hisob-kitoblar va ularning tahliliy ko'rsatkichlari Davlat soliq inspeksiyalari tomonidan nazorati olib boriladi.

### **Xulosa**

Tijorat banklarida foyda solig'ini hisoblash va undirish mamlakat moliya tizimining murakkab, ammo hal qiluvchi jihatni hisoblanadi. O'zbekiston ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish orqali bank sohasida soliq amaliyotini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Aniq reglamentlar, raqamlashtirish va kooperativ muvofiqlik yondashuvining kombinatsiyasi bu borada muhim qadam bo'lishi mumkin. Banklar asosiy foydasini fozili va fozsiz ko'rinishda oladi. Bundan tashqari tijorat banklari yuqori qiymatga ega mol-mulk va yerga ega hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan daromadlar tijorat banklarining soliqqa tortilish obyekti bo'lib hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
2. S.Qudratov.,M.Nazarova. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv.Toshkent. TDIU. 2019 y 3.A.A. Azlarova, M.M. Abduraxmanova "Bank marketingi va menejmenti" Toshkent – Iqtisodiyot – 2019 199
3. Yuldasheva G. Tijorat banklarida korporativ boshqaruvni rivojlantirish istiqbollari // Moliya va bank ishi. № 4, 2020. – 34-41 b
4. Johnstone, B., & Quiggin, J. (2014). The implications of the financialization of the economy for tax policy. Australian Economic Review.